

**ANALYSIS OF CERTAIN LEXICAL UNITS IN THE INTRODUCTION TO ABDURAHMAN JAMI'S "FAWA'ID AL-DIYA'IYYA" (BASED ON THE COMMENTARIES OF ABD AL-GHAFUR LARI AND "AKD AL-NAMI")*****Ikrom Y. Bultakov****Associate professor, PhD**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*[bultakov68@gmail.com](mailto:bultakov68@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan****Dilfuza A. Vohidova****Linguistics (Arabic language) second-year Master's student**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*[dilfuzavohidova7@gmail.com](mailto:dilfuzavohidova7@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** "Fawa'id al-Diya'iyya", Abdurahman Jami, ḥawāshī, tradition of commentary, grammatical analysis, lexical and terminological analysis, comparative study.

**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article analyzes the introduction of Abdurahman Jami's "Fawa'id al-Diya'iyya". The study is based on the commentaries by Muhammad Rahimi ibn al-Haj Ahmad al-Akinii and Abd al-Ghafur Lari. The paper comparatively examines the style, grammatical structures, and terminological approaches of the glosses, as well as the lexical and technical interpretations. Key concepts such as "Hamd and Wali", "Salawat and Salam", and "Adab (Etiquette)" are explored from lexical, terminological, and literary perspectives. The results highlight the author's scientific-methodological approach and demonstrate the linguistic significance of the commentaries.

**ABDURAHMON JOMIYNING "FAVOIDUZ ZIYOIYYA" ASARI MUQADDIMASIDAGI AYRIM LEKSIK BIRLIKLAR TAHLILI (ABDULG'OFUR LORIY VA "AQDU-N-NOMIY" HOSHIYALARI ASOSIDA)*****Ikrom Y. Bultakov****PhD, dotsent**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

[bultakov68@gmail.com](mailto:bultakov68@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

**Dilfuza A. Vohidova**

Lingvistika (arab tili) yo'nalishi II bosqich magistranti

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

[dilfuzavohidova7@gmail.com](mailto:dilfuzavohidova7@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

---

#### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** "Favoiduz ziyoiyya", Abdurahmon Jomiy, hoshiyalar, hoshiyachilik an'anasi, grammatik tahlil, lug'aviy va istilohiy tahlil, qiyosiy tahlil.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning "Favoiduz ziyoiyya" asari muqaddimasi tahlil qilinadi. Tadqiqot asosan Muhammad Rahimiy ibn al-Hoj Ahmad al-Akiniy va Abdulg'ofur Loriy hoshiyalari asosida olib borilgan. Maqolada hoshiyalarning uslubi, grammatik tuzilmalari, terminologik yondashuvlari, shuningdek, lug'aviy va istilohiy talqinlari qiyosiy tarzda tahlil qilingan. Shuningdek, "hamd va valiy", "salovot va salomlar", "odob" kabi asosiy tushunchalarning lug'aviy, istilohiy va badiiy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari muallifning ilmiy-metodik yondashuvi va hoshiyalarning lingvistik ahamiyatini ochib beradi.

---

#### АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРЕДИСЛОВИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБДУРРАХМАНА ДЖАМИ «ФАВАИД АЗ-ЗИЯЙЯ» (НА ОСНОВЕ ХАШИЙ АБДУЛЬГАФУРА ЛАРИ И «АКД АН-НАМИ»)

**Икром Ю. Бултаков**

Доцент, PhD

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

[bultakov68@gmail.com](mailto:bultakov68@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

**Дилфуза А. Вохидова**

Лингвистика (арабский язык), магистрантка 2-го курса

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

[dilfuzavohidova7@gmail.com](mailto:dilfuzavohidova7@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

---

#### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** "Фаваидуз Зияйя", Абдурахман Джами, хашии, традиция комментирования, грамматический анализ, лексический и терминологический анализ,

**Аннотация:** В данной статье проводится анализ введения произведения Абдурахмана Джами "Фаваидуз Зияйя". Исследование основано на комментариях

---

сравнительное исследование.

Мухаммада Рахимия ибн аль-Ходж Ахмада аль-Акини и Абдулгафура Лорий. Статья сравнительно рассматривает стиль, грамматические структуры и терминологические подходы хоший, а также лексическое и терминологическое толкование ключевых понятий. Особое внимание уделено понятиям «Хамд и Валий», «Салават и Салам», «Адаб» с точки зрения лексики, терминологии и художественной выразительности. Результаты исследования показывают научно-методологический подход автора и значимость лингвистического анализа хоший.

**Kirish.** Muhammad Rahimiy ibn al-Hoj Ahmad al-Akiniy Abdulg'ofur Loriydan farqli ravishda o'z hoshiyasini muqaddima bilan boshlaydi. Hamd va sanodan so'ng quyidalarni keltiradi: "Ushbu "Al-Shofiya" (Ibn Hojib, 1995) ning sherigi bo'lgan "Al-Kofiya" ning mashhur muqaddimasiga yozilgan mavlono Abdurahmon Jomiyning sharhiga bitilgan "Aqdu-n-nomiy" deya atalmish hoshiyadir. U ikkisi o'z zamonasining tengsiz olimi, maqtovg'a loyiq sifatlar va fazilatlar egasi bo'lgan shayx, alloma Ibn Hojib ta'lif etgan egizaklardir. Alloh taolo uni eng oliy darajalarga yetkazsin. Ushbu hoshiyani darslar davomida imlo qilganimdan so'ng jamladim, mutolaa qilish chog'ida tahrir qildim. Bunda boshqa hoshiya va sharhlar mualliflarining so'zlaridan iqtibos keltirdim hamda uning qiyinchiliklarini hal etishda yordam bo'lsin deya zehnimga kelganlarni ham qo'shimcha qildim..." (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 7). Abdulg'ofur Loriy esa o'z hoshiyasida muqaddima keltirmasdan bir yo'la sharhga kirishib ketadi. Umuman olganda, Abdulg'ofur hoshiyasi qisqa va lo'ndaligi bilan "Aqdu-n-nomiy" dan ajralib turadi.

Muhammad Rahimiy o'z hoshiyasining yozilish uslubiga to'xtalib o'tgach, duo va istig'fordan so'ng, Abdurahmon Jomiyning "الحمد لوليه" jumlasini sharhiga kirishib, hamd va valiy so'zlariga ta'rif keltiradi:

الحمد هو الوصف بجميل على جميل اختياري قصدا

*Hamd bu – go'zal narsani ixtiyoriy ravishda qasd ila go'zallik bilan sifatlash* (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 7)

والولي اما من الولي بمعنى القرب، أو من الولاية، لأن كل من ولي أمر أحد، فهو وليه أي حافظه وناظره والمتكفل بأمره

*Valiy esa yo "yaqin" ma'nosidagi valiy so'zidan, yoki boshqaruv so'zidir. Chunki, kim biron kishining ishini idora qilib, boshqarib turadigan bo'lsa, u uning valiyisi hisoblanadi, ya'ni*

uning saqlovchisi, nazoratchisi va ishini o'z zimmasiga oluvchi kishi (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 8).

Abdulg'ofur Loriy esa hamdga quyidagicha ta'rif keltirdi:

الحمد مصدر المعلوم. واللام للجنس أو الاستغراق. أي كل حمد من الأزل إلى الأبد من أي حامد كان.

*Hamd – ma'lum fe'lning masdari bo'lib, Aljins yoki qamrab olish uchun keltirilgandir. Ya'ni azaldan abadga qadar har kim tomonidan aytilgan barcha hamdni qamrab oladi (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 7).*

لويله: أي للحرى بجنس الحمد لا يخفى ما في ترك التصريح باسمه سبحانه من التعظيم والإجلال والدعاء التعيين وأن الوحم لما يذهب إلى أن الجدير بالحمد غيره تعالى.

*Hamdning valiysiga, ya'ni hamdga loyiq bo'lgan zotga (hamd bo'lsin). Alloh taoloning muborak ismini ochiq-oydin keltirmaslikda uni ulug'lash, ehtirom va aniq (unga qaratilgan) duo borligi sir emas, shu sababdan ham inson hamdga loyiq zot Alloh taolodan o'zgasi bo'lishi mumkinligini xayoliga keltirmaydi (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 6).*

Muhammad Rahimiy ham Abdulg'ofur Loriynikiga o'xshash fikrni zikr qilib o'tgan, ammo u bu mulohazani qabul qilmaganini ko'rishimiz mumkin. U buni aytilgan mulohazalardan biri sifatida keltirib o'tgan:

يقال: إن الولي بمعنى الحرى ليس من أسمائه تعالى فمبنى التفسير على قصد المعنى الوصفى فاعرفه ودل بلامى الجنس والاختصاص على أن الحمد لا يكون لغيره كما نطق به قوله تعالى له الملك وله الحمد وإنما سلك هذه الطريقة ولم يصرح باسمه سبحانه لاشتمالها على زيادة أمر لا يحصل بغيرها أعني الدلالة على أهليته تعالى بالمطابقة مع ظهور كونه تعالى حريا بالحمد وشيوع استعماله في حقه تعالى لا غير.

*Aytiladiki: "Al-Valiy" so'zining "hamdga loyiq, arzirlil" ma'nosida kelishi Alloh taoloning ismlaridan emas. Shuning uchun bu yerda tafsir ma'nosining sifatga qaratilgan bo'lishiga asoslanadi. Jins va xoslik ma'nosini bildiruvchi "Al" hamdning Undan boshqa hech kimga bo'lmasligiga dalolat qiladi. Xuddi Alloh taoloning "Unga mulk va Unga hamd tegishlidir" (Shayx Abdulaziz Mansur, 2021, p. 580) degan oyatida ochiq aytilgandek. U Zot ismini bevosita tilga olmay, shu uslubni tanladi. Chunki bu uslub boshqa yo'l bilan hosil bo'lmaydigan qo'shimcha bir ma'noni o'zida jamlaydi. Ya'ni, Alloh taoloning hamdga to'la-to'kis munosib ekanini to'g'ridan-to'g'ri bildiradi, shu bilan birga U Zotning hamdga loyiq Zot ekanligi ochiq ravshan bo'lib, bu so'zning Allohga nisbatan ishlatilishi keng tarqalgan va faqat U Zotga xos bo'lib qolgan (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 7).*

و على آله وأصحابه المتأدبين بأدابه والصلاة على نبيه " Hamd va valiy so'zlari ta'rifidan so'ng muallif " (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 8) (Uning (Allohning) nabiyisiga, uning (Payg'ambarning) ahli baytiga va odoblari ila odoblangan sahobalariga salovot va salomlar bo'lsin) jumlasining sharhiga o'tadi. Muhammad Rahimiy "صلاة" so'ziga ortiqcha ta'rif berishni lozim topmay, e'tiborni "نبيه" so'zidagi o' qo'shimcha olmoshiga qaratadi. Uning izohiga ko'ra, "نبيه" dagi o

olmoshi “ولي” so‘ziga, “لَوْلِيَّهِ” dagi o‘lmoshi esa “حمد” so‘ziga qaytadi. Natijada ibora quyidagi mazmunga ega bo‘ladi: “Hamdning valiysining nabiyisiga ... salovot va salomlar bo‘lsin”.

Ba‘zi tadqiqotchilar bunday yondashuvda olmoshlarning تفكيك الضمائر – ya‘ni “olmoshlarni bo‘lib yuborish” hodisasi yuzaga kelganini, buning oqibatida mantiqiy chalkashlik paydo bo‘lishini ta‘kidlaydilar. Muallif esa bu fikrga e‘tiroz bildiradi. Uning mulohazasiga ko‘ra, olmoshlarni bo‘lib yuborish hodisasi faqat ular bitta jumla tarkibida kelgan taqdirda yuzaga keladi. Mazkur matnda esa “الحمد لوليّه” va “والصلاة على نبيه...” ikki mustaqil jumla bo‘lib, shu sababli bunday tanqid o‘rinli emas.

Shundan so‘ng muallif “نبي” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma‘nolarini bayon etadi. U “نبي” so‘zining etimologiyasiga oid ikki asosiy qarashni bayon etadi. Birinchi qarashga ko‘ra, bu so‘z نبأ fe‘lidan olingan bo‘lib, “xabar yetkazuvchi” ma‘nosini anglatadi. Shu talqinga ko‘ra, nabiy – Alloh taolodan xabar (vahiy) olib, uni insonlarga yetkazuvchi zotdir.

Ikkinchi qarash esa “نبي” so‘zini نبوة masdaridan kelib chiqqan, “baland martaba” ma‘nosidagi so‘z bilan bog‘laydi. Bu yondashuvda nabiy – yuqori maqom egasi, sharaflil darajada bo‘lgan zot sifatida talqin etiladi. Istilohiy jihatdan esa “نبي” – Alloh tomonidan insonlarga hukmlarni yetkazish uchun yuborilgan shaxs.

Muhammad Rahimiy “آله” (ya‘ni, ahli bayti) va “أصحابه” (ya‘ni, sahobalari) so‘zlari umumma‘lum, ya‘ni keng tanilgan va tushunarli bo‘lgan atamalar qatoriga kirishini inobatga olib, ularga izoh berishni lozim topmaydi. U, asosan, “المتأديين بأدابه” iborasidagi آداب so‘ziga e‘tibor qaratadi va sharhni ana shu tarkibiy bo‘lakdan boshlaydi:

جمع أدب كأسباب وسبب وهو عبارة عن معرفة ما يحترز به عن جميع أنواع الخطايا

*bu آداب so‘zining ko‘plik shakli, xuddi أسباب va سبب singari. U barcha turdagi xatolardan saqlanishni ta‘minlaydigan ilmdir* (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 9).

Bundan tashqari, Imom Roziy, Ibn Foris kabi tilshunos olimlar “odob” so‘ziga turli xil etimologik ta‘riflarni berganlar va “odamlarni taomga chaqirish”, “ajablantirish”, “baxtsizlik” kabi ma‘nolar bilan bog‘laganlar.

Istilohiy jihatdan odob ikki turga bo‘linadi:

1) Nafs odobi – zohir (tashqi) va botinni (ichki holatni) shar‘an noloyiq narsalardan poklab, ularni haqli, munosib narsalar bilan ziynatlash.

2) Dars odobi – Kitob va hukmlarni yetkazish.

Abdulg‘ofur Loriy esa bu iborani sharhlar ekan, avvalo “صلاة” so‘ziga ta‘rif berish orqali bu iboraning uslubiy va ma‘no jihatlarini tushuntiradi. Uning fikricha, “salot” – rahmat va yaxshiliklarning Alloh taolo tomonidan payg‘ambariga nozil bo‘lishini so‘rash. “نبي” so‘zini esa نبوة masdaridan kelib chiqqan, “yuksak martaba” ma‘nosidagi so‘z bilan bog‘laydi. Shariat

istilohida esa bu – Alloh taolo tomonidan bandalarga vahiy yetkazish uchun yuborilgan insonni anglatadi.

Abdulg'ofur Loriy “وَعَلَىٰ آلِهِ” iborasini “oila a'zolari” ma'nosida, “أصحابه” so'zini esa صُحْبٌ yoki صُجْبٌ so'zlarining ko'plik shakli sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, صُجْبٌ – bu صاحب so'zining yengillashtirilgan shaklidir. Bunday yengillashtirishning sababi sifatida, فاعل vaznidagi ismlarning ko'plik shakli odatda أفعال qolipida yasalmasligi haqidagi qavl keltiriladi. Shu bilan u “أصحابه” so'zining lug'aviy kelib chiqishini grammatik qoidalar asosida izohlaydi.

“المتأدبين بأدابه” iborasini sharhlash jarayonida muallif uni “o'zlarini Rasululloh (s.a.v.)ning odoblari bilan odoblanishga qat'iy bog'lagan, U zotning axloqiy fazilatlarini va go'zal sifatlarini bilan ziynatlangan kishilar” sifatida ta'riflaydi.

Bu talqinda diqqat markazi “odob” atamasining lug'aviy va terminologik tahliliga emas, balki ushbu sifatning mazmun-mohiyatini ochishga qaratilgan. Muallif, Muhammad Rahimiy singari, “odob” so'zining asl ildizi, morfologik shakllari yoki lug'aviy keng qamroviga to'xtalmaydi.

أما بعد؛ فهذه فوائد وافية بحل مشكلات الكافية للعلامة المشتته في المشارق والمغرب الشيخ ابن الحاجب تغمده الله تعالى بغفرانه وأسكنه بحبوحه جنانه

*Ammo ba'd, bu – mashriq va mag'ribda shuhrat qozongan alloma shayx Ibn al-Hojibning “al-Kofiya” kitobidagi mushkullarni hal etishga oid mukammal foydalardir (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 9-12).*

Muhammad Rahimiy ushbu jumla sharhini avvalo “فهذه” so'zining ishlatilish sababini izohlashdan boshlaydi. Muallif ko'rsatish olmoshining asl ma'nosi – hozir mavjud va ko'z bilan ko'rinadigan narsaga nisbatan qo'llanishini ta'kidlaydi va shu asosda mazkur jumladagi ishlatilishini izohlashga o'tadi.

Unga ko'ra, bu ifoda ikki ma'noga ishora qilishi mumkin:

1. Muallif mazkur ma'nolarni mukammal o'zlashtirgan bo'lib, ularni ko'rgandek yaqqol tasavvur qiladi.
2. Talabaning bilim darajasi shunchalik yuksakki, u ham aqliy ma'nolarni ko'rinarli narsadek aniq idrok etadi.

Biroq eng to'g'ri talqin — bu uning fikrida to'la qat'iy qarorga kelgan va iroda bilan shunga yo'nalgan narsaga ishora ekanligi.

“فوائد وافية” iborasi sharhida فوائد so'zining etimologik va semantik kelib chiqishi tahlil qilinadi. Mazkur so'z:

فائدة masdaridan kelib chiqqan (“foйда, manfaat”) so'zining ko'plik shakli sifatida izohlanadi.

فأد (hamza bilan) masdaridan yasalish ehtimoli ham qayd etiladi. Ushbu masdar “qalbga yetib borish, unga ta’sir etish va quvonch bag‘ishlash” ma’nosini anglatadi.

فؤاد (“qalb, yurak”) so‘zidan hosil bo‘lish ehtimoli ham nazarda tutiladi.

Bu jumlada “الوافية” so‘zining “الفوائد” ga nisbat berilishi aqliy majoz usulida izohlangan. Aqliy majoz bu – bir narsani o‘z sababiga isnod qilish. Ya’ni muallif ushbu foydalarni keltirish orqali shayxning so‘zlaridagi mushkullarni hal etishda sustkashlik qilmaganini ta’kidlamogda.

Matnda “حل” so‘zining turli ma’nolari (yechmoq, nozil bo‘lmoq, halol bo‘lmoq) va ularning sarfiy shakllari tafsilot bilan sharhlanadi. “المشکل” esa qiyosiy tashbeh asosida “xafi (noaniq) masalalar”ga o‘xshatiladi. Bu yerda isti’ora makniya (yashirin o‘xshatish) usuli qo‘llangan bo‘lib, bunda mushabbah (o‘xshatiluvchi) zikr etiladi, mushabbah bih (o‘xshatilgan narsa) tushirib qoldiriladi. “Hal qilish” esa “tasavvuriy yechim” sifatida ko‘riladi.

“Al-mushtahir” (المشتهر) so‘zining talaffuzida kasra va fatha variantlari mavjud. Agar so‘z kasr bilan o‘qilsa, u holda fe‘lning lozim shakli — ya’ni “o‘zi mashhur bo‘ldi” ma’nosi anglashiladi. Agar fatha bilan o‘qilsa, u holda fe‘lning muta‘addiy shakli, ya’ni “boshqalar uni mashhur qildilar” mazmuni hosil bo‘ladi. Sharhlovchilar nazarida ikkinchi talqin – fatha bilan kelishi – uslubiy jihatdan kuchliroq va ma’noni yanada ravshanroq ifodalaydi.

“عَلَامَةٌ” so‘zi esa siyg‘ayi mubolag‘a shaklida kelgan bo‘lib, ilmiy martabaning nihoyatda ulug‘ ekanini, ya’ni “ilmda nihoyatda yuksak, keng bilim sohibi” ma’nosini anglatadi. Muallif shuningdek, bu so‘zning ma’naviy muzakkar ekaniga ham ishora qilib ketadi.

“في المشارق والمغرب” iborasining sharhida muallif butun yer yuzini nazarda tutganini ta’kidlaydi. Chunki arab tilida narsaning ikki chekkasini zikr qilish orqali uning butunini anglatish odat tusiga kirgan. Ushbu umumlashtirishni u quyoshning har kuni yangi nuqtadan chiqishi va botishi bilan asoslaydi. Ya’ni quyosh qisqichbaqa burjidan tog‘ echkisi burjigacha bo‘lgan 182 daraja oralig‘ida har kuni yangicha mashriqqa ega bo‘ladi va keyin yana qaytadi. Shu tarzda mashriqlar va mag‘riblarning ko‘pligi ilmiy asoslangan bo‘lib, Qur’onda zikr qilingan “رَبُّ الْمَشَارِقِ وَالْمَغْرِبِ” (Shayx Abdulaziz Mansur, 2021, p. 531) oyatiga ham muvofiq keladi.

“في المشارق والمغرب” iborasiga doir sharhlar keltirilgach, Muhammad Rahimiy Ibn Hojibning hayoti va ilmiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tadi. So’ngra “shayx” so‘ziga izoh berib ketadi. “Shayx” so‘zi lug‘aviy jihatdan ellik yoshdan sakson yoshgacha bo‘lgan kishi haqida ishlatilsa-da, matnda bu so‘zning qo‘llanishida kengroq ma’no yuklangan. Ayrim olimlarning ta’kidlashicha, “shayx” atamasi hurmat maqsadida qo‘llanilgan bo‘lsa, sharh egasi buning zarur emasligini qayd etadi. Zero, so‘zning o‘zida ham ehtirom ma’nosi mujassamdir. Bunga qo‘shimcha ravishda, matnda “istiora musarraha” usuli kuzatiladi: ya’ni, fozil va kamolot egasi bo‘lgan shaxs, hurmatga sazovorligi jihatidan, keksalikka yetgan odamga qiyoslanadi. Shu tarzda

“shayx” soʻzi bir vaqtning oʻzida ham yosh davrini bildiruvchi lugʻaviy termin, ham fazilat va martabaga ishora qiluvchi timsol sifatida talqin qilinadi.

Abdugʻafur Loriy esa “...فهذا فوائد وافية” jumlasiga bergan sharhida matnning lugʻaviy, istilohiy va mantiqiy qatlamlarini izchil ochib beradi. Unga koʻra, فهذه soʻzi muallif tomonidan keyin keltiriladigan ilmiy masalalarga ishora qiladi. فوائد esa فيد masdaridan yasalgan boʻlib, “olingan va berilgan narsa, manfaat va foyda” maʼnolarini bildiradi.

مشكلات الكافية iborasida مشکل atamasi “ishkāl”dan kelib chiqib, “shubha yoki noaniqlik”ni anglatadi. Haqiqatning yashirinligi sababli uni “mushkil” deb atash mumkin, chunki u baʼzan botilga oʻxshab koʻrinadi. الكافية soʻzidagi ةni Loriy uch xil ehtimol bilan tushuntiradi: mubolagʻa maʼnosida, naql maʼnosida yoki kitobning risola ekaniga ishora sifatida muannaslik uchun.

العلامة soʻzidagi ة ham mubolagʻa ifodasi boʻlib, u “ilmda nihoyatda yuksak darajaga yetgan zot”ga nisbatan ishlatiladi. Biroq bu atama Alloh taologa tatbiq etilmagan, chunki unda muannaslik xayoli tugʻilishi mumkin.

المشارق والمغرب iborasini Loriy kinoya yoʻli bilan “yer yuzining toʻliq qamrab olinishi”ni ifodalovchi ibora sifatida talqin qiladi. Qurʼondagi “رب المشارق والمغرب” oyatiga murojaat qilib, bu tushunchani astronomik asos bilan mustahkamlaydi: quyosh har kuni qisqichbaqa burjidan togʻ echkisi burjigacha 182 xil manzildan chiqadi va qaytib keladi, xuddi shu holat botishlarda ham sodir boʻladi. Shuningdek, Qurʼonda keltirilgan “رب المشرقين ورب المغربين” shaklidagi ikkilik ham sharq va gʻarbning toʻliqligini ifodalaydi, bunda “chiqish va qaytish” manzillari nazarda tutiladi. Bunda Abdulgʻofur Loriy va Muhammad Rahimiy oʻxshash usullarni tanlaganlarini koʻrishimiz mumkin.

“Shayx” soʻziga esa u birgina “xoʻja” deya taʼrif bergan. Abdulgʻofur Loriyning oʻziga xos tomoni soʻz va iboralarga taʼrif keltirishda koʻproq fors tilidan foydalanganidir. Xoʻja – forsiy kelib chiqishga ega boʻlib, aslida “ustoz, murabbiy, peshvo, katta ilm sohibi” maʼnolarini anglatadi.

Tasavvufiy va ilmiy anʼanalarda “xoʻja” soʻzi odatda ustoz shayxlar, murshidlar yoki yirik ulamolarga nisbatan ishlatilgan.

Koʻp hollarda bu soʻz ehtirom unvoni sifatida keltiriladi. Masalan, “Xoʻja Bahouddin Naqshband”, “Xoʻja Ahror”, yoki arabcha matnlarda “ash-shayx al-xoʻja” tarzida.

نظمتها في سلك التقدير وسمط التحرير للولد العزيز ضياء الدين يوسف، حفظه الله سبحانه وتعالى عن موجبات التلهف والتأسف وسميتها بالفوائد الضيائية

*Bu risolani yozib, uni tartibli va ravon shaklda bayon qildim. Uni aziz farzandim Ziyovuddin Yusufga bagʻishladim. Alloh taolo uni pushaymon boʻlish va afsuslanishga sabab*

bo'ladigan holatlardan asrasin. Asarga "Favoiduz ziyoiyya" deb nom berdim (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 12-13).

Rahimiyning "نظمتها في سلك التقرير" jumlasiga yozgan sharhi, aslida, matnning ichki tuzilishini ham, uning tashqi badiiy shaklini ham ochib beradi. "نظم" atamasi lug'aviy jihatdan marvaridlarni ipga tizish ma'nosini anglatadi. Bu ma'no istilohiy tarzda matnga tatbiq qilinganda, muallifning so'z va ma'nolarni bir maromda, uyg'unlikda tartibga solganini bildiradi. Shunday qilib, "نظم" muallifning asar yozish uslubini – mazmunan tartibli va shaklan go'zal bo'lishini ta'riflaydi.

"تقرير" esa asl ma'noda "bir narsani barqaror qilish, qaror toptirish"ni anglatadi. Istilohiy qo'llanishida esa u "bayon qilish, dalil bilan mustahkamlash" ma'nosiga ega bo'lib, muallifning ilmiy niyatini, ya'ni matnni qat'iy, tushunarli va ishonchli qilib taqdim etishni ko'rsatadi. Shu yerda Rahimiy "سلك" va "سمط" o'rtasidagi farqni ham izohlaydi: "سلك" oddiy ipni anglatib, unda marvarid bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin; "سمط" esa faqat marvaridlar tizilgan ip ma'nosida keladi. Bu farq muallifning tashbehni yanada noziklashtirganini ko'rsatadi, ya'ni so'zlar oddiy tartibda emas, balki go'yo marvariddek tizilgan holda kelmoqda.

"ضياء الدين" iborasiga kelganda, laqabning ism oldidan kelishi nahviy qoidaga zid ko'ringan bo'lsa-da, Rahimiy buning ikki asosini keltiradi: birinchisi – saj' (qofiyali uyg'unlik)ni saqlash; ikkinchisi – laqabning mashhurligi tufayli ismni ortda qoldirish mumkinligi. Bu fikrlar Ibn Malikning "Alfiyya"si va Ashmuniyning sharhiga tayanib bayon qilingan. Demak, muallifning o'g'liga bergan laqab oddiy nom emas, balki diniy-axloqiy mazmunni ham o'zida mujassam etadi: "Din nuridan bahramand bo'lish".

"سبحانه" so'zining tahliliga to'xtalsak, Rahimiy uni masdariy shaklda talqin qiladi va nahviy nuqtayi nazardan bu so'zning ishlatilish uslubini ochib beradi. Bunda Qur'on uslubi va tasbih ifodasining umumiy grammatik qoidalari eslatiladi.

Umuman olganda, Rahimiyning sharhi uch qatlamda ko'rinadi: birinchidan, lug'aviy va istilohiy tahlil orqali muallifning so'z tanlashidagi noziklikni ochib beradi; ikkinchidan, balog'iy san'atlar (tashbeh, saj', izofa) orqali matnning badiiy-estetik qimmatini ko'rsatadi; uchinchidan, grammatik va nahviy asoslarni bayon qilish orqali iboraning ilmiy mustahkamligini isbotlaydi. Natijada, "نظمتها في سلك التقرير" jumlasini oddiy ta'rif emas, balki muallifning asarni yozishdagi ilmiy va badiiy maqsadini mujassamlashtiruvchi ifoda sifatida talqin qilinadi.

So'ngra "عن موجبات التلهف والتأسف" iborasidagi lug'aviy va semantik tafovut ochib beriladi. "تأسف" so'zi chuqurroq qayg'u va nadomatni anglatadi, Qur'ondagi "يَا أَسْفَى عَلَىٰ يُوسُفَ" oyatida qo'llangani bunga dalil bo'ladi. "تلهف" esa yengilroq iztirobni bildiradi. Muallif bu ikki tushunchani birga keltirib, o'g'lini barcha darajadagi g'am-alamlardan, ayniqsa oxiratda aql va amalning nuqsoni sabab yuzaga keladigan nadomatdan saqlashni tilaydi.

Keyingi jumla “وسميتها بالفوائد الضيائية” da asar nomi talqin qilinadi. Muallif o‘g‘lining laqabi — “ضياء الدين”ga murojaat qilib, odatdagi nisbat qoidalarida ikkinchi unsurdan emas, balki birinchi unsurdan nisbat olgan. Bu uslubiy tanlov nomning semantik asosini mustahkamlaydi: o‘g‘il “dinda nur” sohibi sifatida ko‘rib, kitob ham shu nurdan bahramand etuvchi ilmiy manba sifatida taqdim etiladi.

Shuningdek, sharhda asar va risolalarning nomlanishi masalasi ham muhokama qilinadi. Tilshunoslar ularni علم شخصي – shaxs ismlari kabi maxsus nom sifatida ko‘radilar, chunki matnning tuzilishi va ifodasi uni boshqalardan ajratib qo‘yadi. Shu bois “الفوائد الضيائية” nomi ham umumiy tur emas, balki muayyan ilmiy matnning o‘ziga xos belgisidir.

لأنه لهذا الجمع والتأليف كالعلة الغائية، نفعه الله تعالى بها وسائر المبتدئين من أصحاب التحصيل، وما توفيقي إلا  
بالله، وهو حسبي ونعم الوكيل

*Mazkur asarni tuzish va tartibga solishning asl maqsadi ham shu edi. Alloh taolo uni ham, ilm izlayotgan barcha boshlovchi talabalarni ham undan bahramand qilsin. Zero, muvaffaqiyat faqat Allohning yordami bilan bo‘ladi. U menga kifoya qiluvchi zot va eng yaxshi himoyachidir* (Muhammad Nuri Nas, 2010, pp. 14–15).

Rahimiy sharhida “لأنه لهذا الجمع والتأليف ... كالعلة الغائية” jumlasini izohlanar ekan, muallif asarga bu nom berilishining sababini ochib beradi. Unga ko‘ra, “jam” so‘zi muallifning faqat o‘ziga xos ilmiy izlanish emas, balki avvalgi ulamolarning so‘zlarini tartib bilan keltirishini bildiradi. “Ta’lif” so‘zi esa mazkur jamlangan fikrlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, ya’ni ular o‘rtasida muvofiqlik va mantiqiy aloqani ta’minlash ma’nosini anglatadi. Shu bois, muallif ikki ifodani qo‘shib ishlatadi va bu qo‘shilish mazmuniy jihatdan ham o‘rinli hisoblanadi.

Sharhda, shuningdek, asarning yozilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad ta’kidlanadi. Ya’ni, bu ishning asosiy sababi — o‘g‘li Ziyovuddin Yusuf va unga o‘xshash talabalarning ilm olish jarayonida foyda ko‘rishlaridir. Biroq Rahimiy muallifning niyatini faqat Yusufga xoslab qo‘ymaslik zarurligini uqtiradi, chunki bu umumiy holda barcha talabalarni nazarda tutadi.

Matndagi “وما توفيقي إلا بالله” jumlasini esa muallifning o‘z ilmiy sa’y-harakatlarini Allohning madadi va muvaffaqiyatisiz mukammal bo‘lishi mumkin emasligini tan olishini ifodalaydi. Bu, bir tomondan, kibr va o‘ziga ishonib ketish xatari oldini olsa, ikkinchi tomondan, ilmiy faoliyatning ham ilohiy qo‘llov bilan mustahkamlanishini ko‘rsatadi.

“وهو حسبي ونعم الوكيل” iborasiga bergan sharhda, avvalo “حسب” so‘zining lug‘aviy va grammatik xususiyatlari ochib beriladi. U aslida masdar bo‘lsa-da, bu yerda ism foil ma’nosida, ya’ni “kifoya qiluvchi, yetarli bo‘luvchi” ma’nosida kelgan.

**Xulosa o‘rnida aytishimiz joizki,** Rahimiyning hoshiyasi muqaddima bilan boshlanishi, unda lug‘aviy, istilohiy, balog‘iy va grammatik qatlamlar uyg‘un holda yoritilgani, muallifning ilmiy-badiiy niyati izchil ochib berilgani bilan ajralib turadi. Abdulg‘ofur Loriyning hoshiyasi esa

muqaddimasiz, to'g'ridan-to'g'ri sharhga o'tishi hamda qisqa va lo'nda uslubi bilan farqlanadi. Har ikki muallif ham muqaddima iboralarini sharhlashda umumiy metodologik asoslarga tayangan bo'lsalar-da, yondashuv uslubi, tafsilot darajasi va izohlarning yo'nalishi jihatidan farqlanishi kuzatildi. Umuman, ushbu qiyosiy tahlil Jomiy sharhlariga yozilgan hoshiyalarning ilmiy qiymatini, ularning nahv, balog'at va tafsir an'analari doirasidagi o'rnini ochib berishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Al-Ṭanṭawī, M. (2005). The Emergence of Arabic Syntax and the History of the Most Famous Grammarians. Nash'at al-Naḥw wa Ta'riḥ Ashḥar al-Nuḥat. – Egypt: Dar al-Ma'arif. – 224 p. (in Arabic)
2. Anvarov, A. (2001). Jami and His Contribution to the Science of Arabic Syntax. Jomiy va uning nahv ilmiga qo'shgan hissasi. – Tashkent: Fan. – 148 p. (in Uzbek)
3. Gulomov, N. (2003). Main Trends in Arabic Linguistics. Arab tilshunosligining asosiy yo'nalishlari. – Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia. – 192 p. (in Uzbek)
4. Ibn Ḥajīb. (2005). Al-Kafiya in Syntax. Al-Kafiya fi al-Naḥw. – Cairo: Al-Maktaba al-'Aṣriyya. – 96 p. (in Arabic)
5. Jami, A. (1990). The Benefits of Radiance in the Commentary on al-Kafiya. Al-Fawa'id al-Ḍiya'iyya fi Sharḥ al-Kafiya. – Tehran: Intisharat-i 'Ilmiyya. – 312 p. (in Arabic)
6. Mahmudov, N. (2005). Stages of Development of Arabic Grammar. Arab grammatikasining rivojlanish bosqichlari. – Tashkent: University Publishing. – 176 p. (in Uzbek)
7. Nas, M. N. (2010). The Luminous Collection. Al-Majmu'a an-Nuriya. – Istanbul: Dar Nur as-Subah. – 542 p. (in Arabic)
8. The Meanings and Exegesis of the Holy Qur'an. (2021). Translation by Shaykh Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Tashkent: Munir. – 624 p. (in Uzbek)